

IT ATAMALARINI INGLIZ TILIDAN O‘ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHDAGI MUAMMOLAR

Nasrullayeva Tozagul

Teacher, the Department of Translation theory and practice,
Samarkand State Institute of Foreign Languages

Ungalova Dilnoza

Master degree student of Samarkand State Institute of Foreign Languages

Annotatsiya — Globallashuv jarayoni ko‘plab tillarning ichki va tashqi manbalar orqali boyish imkoniyatini oshirmoqda. Jahon va milliy tillar maydoniga ko‘plab yangi so‘zlar, atamalar va so‘z birikmalari kirib bormoqda. Ayniqsa, axborot-telekommunikatsiya tizmidagi yangiliklar bunday birliklarning yanada keng ildiz otishiga sabab bo‘lmoqda. Shu jumladan IT sohasidagi yangi atamalarining kelib chiqishi ularni tarjima qilish borasida qator yechilishi lozim masalalar borki, ularga o‘z o‘rnida hal etilishi joiz. Maqolada ayni muammolar va ularga olimlarning yechimlari haqida so‘z yuritamiz.

Abstract — The process of globalization is increasing the possibility of many languages to be enriched through internal and external sources. Many new words, terms and phrases are entering the field of world and national languages. In particular, innovations in the information and telecommunication system are causing such units to take root more widely. Including the origin of new terms in the field of IT, there are a number of issues that need to be resolved in terms of their translation, which should be resolved in their place. In the article, we will talk about these problems and scientists’ solutions to them.

Keywords—iction, online workshop, foundation, depiction, nostalgically, evocative details, common folk, triannually.

1. KIRISH

IT sohasiga oid atamalar xususida to‘xtalib o‘tishdan avval atama nima degan savolga oydinlik kiritib olish zarur. Atamalar etimologik jihatdan o‘zbek tilida “ot” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lsa, uning ingliz tilidagi tarjimasini “termin” so‘zi lotincha “terminus” so‘zidan olingan bo‘lib, chegara degan ma‘noni bildiradi va u bilan terminologiya fani shug‘ullanadi. Atamalarining o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: 1) terminlar sistematik xususiyatga ega; 2) terminologik sohasida ular odatda monosemantikdir; 3) atamalar odatda hech qanday his-tuyg‘uni ifodalamaydi; 4) atamalar stilistik jihatdan neytraldir. Termin tushunchasi va uning tarjimasini bilish uchun uning morfologik tuzilishi va umumiy so‘zdan farq qiluvchi leksik o‘ziga xosligini bilishimiz kerak. Ta’kidlab o‘tishimiz joizki, IT sohasida ham atamashunoslik yuqorida tilshunoslik, xususan, tarjimashunoslikning bir bo‘g‘inini tashkil etadi va bu tarjimon va tilshunos oldiga katta ziyraklik va mas’uliyatni talab etadi.

2. ASOSIY QISIM

Maqola mavzusi doirasida qator materiallar va ularni qayta ishlash va mazmun va mohiyatan muhokoma qilish uchun qator usullar tadbiiq etiladi. Mavzuga murojaat qilgan tadqiqotchi borki, u tilshunoslik va tarjimashunoslik, uning bo‘limlari va unda ish olib boradigan mutaxassislar xususida muayyan bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi zarur. Xususan, atamalar bilan bog‘liq tarjimashunoslikda, so‘z, leksema, morfema, lekskologiya, leksikografiya va leksikografiya singari tushunchalarga duch keladi. Xo‘sh, bu qanday bo‘limlar va ular bilan shug‘ullanuvchilar o‘zi aslida kim hamda ularning IT terminologiyasi va tarjimashunosligidagi o‘rni qanday degan savol har doim diqqat markazida bo‘lmog‘i zarur. Leksikograflar “bu so‘z nimani anglatadi” degan savolga javob berishadi. Terminograflar esa “qaysi atama ma’lum bir sohadagi kontseptsiyani munosib tarzda ifodalaydi?” degan savolga duch kelishadi, deydi Magner Brekke [8, 551]. Jennifer barcha an’anaviy va pragmatik terminologlarning fikrlarini umumlashtirganda, matnni tarjima qilish yoki tushunish uchun o‘qish paytida ushbu qarashlar duch keladigan muammolarni ko‘rsatadi. Atamani so‘zdan ajratish eng qiyin vazifadir. Sinonimiya, omonimiya yoki polisemiya ularning ma‘nosini berishda rol o‘ynaydi va ma’no ajratib olish bunday jarayonda biroz mushkul sanaladi [2, 338]. Shvetskova tasnifiga ko‘ra, barcha terminologik birliklar quyidagi guruhlariga bo‘linadi: a) bir so‘zli atamalar deb tushuniladigan, asoslari ildiz bilan mos keladigan oddiy atamalar, b) bir so‘zli atamalar bo‘lgan murakkab atamalar, asoslari bir nechta ildiz morfemalarini o‘z ichiga oladi; c) terminologik birikmalar, ya’ni ikki yoki undan ortiq terminologik komponentlarning birlashishi natijasida hosil bo‘lgan atamalar. So‘zning morfemik tuzilishiga ko‘ra, atamalarining yana bir turi qisqartmalar bilan ajralib turadi [1, 5]. Muhokama. “Tarjimada morfologik jihat” Verhaar (1996) morfologiya tilning asosiy birliklarini grammatik birliklar sifatida belgilaydigan tilshunoslik bo‘limi ekanligini ta’kidlagan bo‘lsa, Samsuri (1988) morfologiyani tilshunoslikning so‘zlarning tuzilishi va shakllarini o‘rganuvchi bo‘limi deb ta’riflaydi. Tarjimada morfologik jihatga e’tibor berish kerak bo‘lgan muhim qismidir. Tarjimada so‘zlar adekvat ekvivalentlikka erishish uchun zarurdir [3, 127]. Armstrong (2005) ta’kidlashicha, so‘zlar

muhim rol o'ynaydi, chunki ular band yoki jumla tarkibida harakatlanishi mumkin. Bundan tashqari, manba matn sifatida ingliz va indonez tilidagi so'z qurilishi morfologik naqshlardagi farqlar tufayli turli xil talqinlarni berishi mumkin [4, 13]. Morfologiya tarjimonlar uchun lingvistik tajribaning muhim jihati hisoblanadi. Bundan tashqari, morfologiya va manba matn va maqsad matn o'rtasidagi so'zlarning qanday yasashini tarjimashunoslikda tekshirish mumkin. Ikki matn o'rtasida talab qilinadigan ekvivalentni tanlashda manba matn va maqsadli matn o'rtasidagi morfologik tuzilishdagi farqni hisobga olish kerak.

Hozirgi o'zbek tilidagi tarjima lug'atlarda ham qator muammoli masalarga duch kelamiz. Masalan, “to count” va “calculate” so'zlariga e'tibor beraylik. Inlizcha-o'zbekcha tarjima lug'atlarda ularning har ikkisi “hisoblamoq” deb tarjima qilinadi. Lekin aslida ushbu atamalarda anglashilgan manoviy mazmun biroz boshqacharoq. “To count” bu aslida mantiqiy hisoblashni nazarda tutadi. Olaylik, boshlang'ich maktab sinflarda tahsil olayotgan o'quvchilarga o'qituvchi barmoqlar yoki muayyan predmetdalar (sanoq tayoqchalari, mevalar yoki hayvonlar soni)ni mantiqan keltirgani holda ularni mantiqiy hisoblash ko'nikmasini shakllantiradi. “Calculate” esa, boshqacharoq, ya'niki ushbu atama zamirida muayyan hisob-kitobni ilmiy tarzda, nisbatan tez va puxta amalga oshirish ma'nosini anglashiladi. Demakki, bu ikki so'zni o'zbek tilidagi IT terminologiyada ayni bir so'z – “hisoblamoq” bilan tarjima qilish tarjimashunoslikdagi g'alizlik va tushunmovchilikka sabab bo'ladi.

IT tarjimashunoslikdagi yana ikki ma'no va mazmunga ega ikki so'z “management” va “administration”ning bir so'z – “boshqaruv” tarzida o'zbek tiliga tarjima qilinishi jarayoniga e'tiborimizni qarataylik. Bu yerda ham ingliz tilida ushbu so'zlar zamiriga jamolangan mazmun ko'p hollarda o'zbek tilidagi tarjimasida o'z ifodasini topmaydi. Yana shunday hollarni ham uchratamizki, adminstratsiya tashqi manba orqali tilning boyish manbasi deya talqin etiladida “adminstratsiya boshqarmasi” deb yoziladi. Boshqa o'rinlarda management o'zlashma so'z sifatida talqin etilib, undan yasalgan shaxs oti “menejer” ni o'zlashma so'z tarzida ko'proq qabul qilganimiz holda, “management” goh o'zlashma so'z sifatida, ko'p hollarda esa tarjimaga tortiladigan so'z sifatida talqin etiladi. Biz solishtirayotganimiz “management” va “administration” so'zlaridagi ma'noga e'tibor beraylik. To'g'ri, ikkalasida ham boshqaruvga xos ma'no ifodalanishi mumkin, lekin birinchisida ma'muriyat ma'nosi yo'q. Ya'niki “management”da ko'proq iqtisodiy ma'no bor. Ya'ni unda biror xizmat yoki mahsulotni iqtisod qilish, tejash ma'nosidagi boshqaruv ma'nosi hukmron.

Bizning tarjima borasidagi terminologiyamiz nafaqat IT sohasida, sh bilan birga fanning boshqa sohalarida ham ayni shunday jumboqlarga boy atamalar borki, bu tarjimonlardan zarur bilim va yetarlicha ziyraklikni talab etadi. Biz o'zbek tilida haligacha Google tarjimon imkoniyatlardan foydalangan holda kamchiliksiz tarjimaga erisha olmayapmiz. Aniqki, atama va uning turli tillardan o'zbek tiliga, o'zbek tilidan turli tillarga tarjimasi tuzatmay, uni mukammallashtirmay turib bunga erisha olmaymiz. O'z mavzuyim doirasi bo'lganligi uchun Google tarjimon” dasturining kamchiliklarini ham o'rgandim. Unga nafaqat terminologiya, shu bilan birga punktuatsiya bilan ham bog'liq zarur o'rinlarni kiritish lozimligini tushundim. Masalan, olaylik ingliz tilidagi matndan to'g'ridan to'g'ri Google tarjimon sahifasiga yo'naltirilgan matnda “%”, “/” belgilari bo'lsa, u bo'sh matn tarzida o'tib qolmoqda. Shuningdek, bog'lovchilar, kirish so'zlar, qo'shma gaplar, undalmalarni ajratishga xizmat qiladigan “,” belgisi ham Google tarjimon tomonidan yaxshi tanib olinmaydi va bu ham so'zlarning ikki gap orasida ortiqcha tarzda ifodalanishiga sabab bo'lmoqda. Qolaversa, Google tarjimonga to'g'ridan to'g'ri yo'naltirilgan matnda so'zlar orasida ortiqcha joy (probel) qolib ketadi va bu ham gap ichidagi so'zlarning o'zaro bog'lanishiga, halaqit bergani holda gapning mazmun uyg'unligiga halaqit bermoqda.

3. XULOSA

Shuni aytishimiz mumkinki, terminologiya va tarjimashunoslik masalasi uyg'un va ajralmas. IT terminologiya sohaning alohida sohasi hisoblanmay o'zbek va ingliz tillaridagi tilshunoslik ilmi bilan chambarchas bog'langan. IT sohasidagi terminologiya tarjimonidan ko'proq mas'uliyat va ziyraklik talab qiladi. Negaki, undagi terminlar soat sayin rivojlanib boratoygan IT uchun barqaror tarzda iste'mol qilinish zaruratiga xizmat qilmog'i lozim. Bu esa tarjimonidan har ikki tilni bilishi, tilning tor doiradagi yetuk mutaxassislari bilan bilan yaqin hamkorlikka kirishishi, IT tarjimashunosligi borasidagi jahon tajribasini puxta o'rganishni taqozo etadi.

4. REFERENCES

- [1] Luu, T.T. (2011). Strategies to Translate Information Technology (IT) Terms. Theory and Practice in Language Studies, 1(1), 1-7.
- [2] Khayrieva M.I. Guidelines for completing tasks in independent work for students of linguistic universities // Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 12 (1), 336-339.
- [3] Khayrieva M.I. The problem of interference in learning and teaching languages // Web of Teachers: Inderscience Research 1 (8), 126-130.
- [4] Khayrieva M.I. & KL Eshkuvatovna The specific features of translation of the poetry and prose from English into Uzbek // American Journal of Social and Humanitarian Research 2 (9), 11-14.
- [5] Khayrieva M.I. & KL Eshkuvatovna. Linguistic problems of literary translation // Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10 (1), 864-867.
- [6] English-uzbekdictionary. Inglizcha-o'zbekcha lug'at - T: «Niso Poligraf», 2013. – 816-b.
- [7] Asror, Y. (2023). DICTIONARY OF LINGUOCULTURAL UNITS AS A TYPE OF DICTIONARY. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(3), 251-253.

- [8] Bahodir Abdimal Ugli Abdirasulov, & Mohinur Salokhiddin Kizi Qayimova (2024). DIVERSE LITERATURE IN EDUCATING A CHILD. Science and innovation, 3 (Special Issue 19), 434-436. doi: 10.5281/zenodo.10817466.
- [9] Kushbakova, M., Shahram, A., & Zarina, R. INTERCULTURAL TRAINING AT EARLIER STAGES—AS AN INNOVATIONAL PROJECT AT EFL TEACHING. *Zbiór artykułów naukowych recenzowanych.*, 72.
- [10] Shahram, A., & Zarina, R. MODERN LANGUAGE TEACHERS IN FOREIGN LANGUAGES (US EXPERIENCE). *Zbiór artykułów naukowych recenzowanych.*, 277.
- [11] Шамахмудова, А. (2022). Pragmatic possibilities of interrogative sentences in a stable form. *Современные лингвистические исследования: зарубежный опыт, перспективные исследования и инновационные методы преподавания языков*, (1), 17-19.
- [12] Furkatovna, S. A., Jurabekovna, T. M., & Mamurjonovna, T. P. (1962). Gender aspects of politeness strategy in speech acts. *Linguistics and Culture Review*, 5 (S2), 1488-1496.
- [13] Шамахмудова, А. Ф. (2022). ҲУРМАТ ТАМОЙИЛЛАРИНИНГ ГЕНДЕР АСПЕКТЛАРИ. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 5(3).